

## "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ASARINING BADIY MOHIYATI

Sevinch Mukarova

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

*"Romanni loqayd hayajonsiz o'qib bo'lmaydi, u kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqani solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg'ish yog'diradi".*

(Said Ahmad)

Yigirmanchi asr o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan adiblardan biri O'tkir Hoshimovdir. Uning "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Bahor qaytmaydi" kabi asarlari kitobxonlarning qalbidan joy olgan. Xuddi shunday asarlardan biri "Tushda kechgan umrlar" romanidir. Asar 1991-1992- yillarda yozilgan. Ilk bor "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan. Roman adibning eng mashhur asarlaridan biridir. Menda ulkan taassurotlar uy g'otgan, turli o'y-mulohazalarga olib kelgan asar ayni shu romandir.

Odamzot hayotida shunday pallalar bo'ladi-ki, ba'zida ularni hech qachon unutging kelmaydi, ba'zida esa tushingda kechirgandek unutishni xohlaysan. Ammo bunday vaqtlar hayotingda qanday iz qoldirganidan qat'i nazar, baribir qalbingni bir chetida o'sha xotira bilan band bo'lib qolaveradi. Noyob iste'dod sohibi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarini o'qigan kitobxon dilidan ham shunday o'ylar kechadi. Romanda keltirilgan voqealar qamrovi juda keng: qatag'on qilish manzaralari, Afğoniston urushi lavhalari, "o'zbek ishi" ...

Insonlar hayotida sodir bõlgan bu uch yirik voqealar bir-biri bilan boĝlangan. Bu manzaralar shu qadar ta'sirli tasvirlangan-ki, gõyo õsha manzaralarda ishtirok etgandek.

El ixlosini qozongan adib, O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Xoshimovning ushbu asarida afg`on urushi voqealari, urush qatnashchilarining urushdan keyingi ruhiy kechinmalari asar qahramoni Rustam obrazi orqali yorqin tasvirlab berilgan. Asar o'ziga xos tuzilishiga ega. Unda Rustamning kundaligidan lavhalar keltirilgan. Voqealar kuz tasviri bilan boshlanadi va oxirida ham shu tasvir keltiriladi. Kuzning o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshatilishi, hazonlarning ingrashi, yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman qoplashi, qarg'alarining bexosiyat fig'oni asarda qandaydir nohush vaziyatlar bo'lishiga ishora qiladi. "Kuz o'lim tõshagida yotgan bemorga õxshaydi..." Bu romanning butun ruhiyatini, undagi odamlar qismatini ifodalovchi jumla, ichki musiqasidir.

Asar voqealar markazida turgan qahramonlar: Rustam, uning otasi, Komissar Soat G'aniyev, Qurbonoy xolalarning hayoti xuddi tushdagidek ma'nisiz va alg'ov - dalg'ov o'tdi...

Asar bosh qahramonlardan biri Rustam o'qishni to'xtatib armiyaga ketadi. Armiyadan esa urush bo'layotgan Afg'onistonga jo'natiladi. U Vatani va xalqi

uchun emas, sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat siyosiy manfaati uchun jang qildi.

Rustam afg'on urushi xotiralaridan qutula olmadi. ... U O'zi sevgan qiz Shahnozaga uylangan bo'lsa ham, ikkalasi bir- birini qattiq sevsa ham ular baxtli bo'lisha olmadi. Bu baxtsizliklarning asosiy sababi urushning salbiy ta'siri edi. Uyga qaytgandan keyingi ketma-ket adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lishi, ayolning baxtsizligiga o'zini aybdor his etishi uning fojiali o'limiga sabab bo'ldi.

Komissar Soat G'aniyev har bir kitobxonning qalbida nafrat uyg'otadi. U otasining izidan borib, sovet komissari bo'lib yetishadi. Yoshligidan ko'plab insonlarning nohaq jazolanishiga sabab bo'lgan, bir ayolning nomusiga tekkan bu odam keksayganda ham pushaymon bo'lmaydi. U o'tgan umridan afsuslanmaydi. dunyoqarashini o'zgartirmaydi. Komissar 70 yillik zulm saltanatining timsoli. U oddiy emas, o'ta xavfli manqurt.

Qurbonoy xola umrini nimaga sarflaganini bilmaydi, sog'ligi yomonlashib ishga yaramay qolsa ham har kungi yumushlarini qo'ymaydi. Doktorlar man etishsaham o'z bilganidan qolmay kundalik tashvishlarini bilan band. Bu ayolning umri ham xuddi tushdagidek mazmunsiz va behalovat kechdi.

Romanni qayta o'qiganimda shunga ishonchim komil bo'ldi-ki, agar u faqat "o'zbek ishi"ni qalamga

olganda masalani bir tomonlama hal qilgan, yozuvchining maqsadi ham, oldiga qōygan vazifasi ham bajarilmas edi. Kompozitsion qurilishida ham ōziga xoslikni sezdim. Roman Rustamning kundaligidan boshlanib, boshqa voqealarga ōtib ketiladi. Sōng voqeani birdaniga Rustamning ōlimiga olib boradi. Voqealar va personajlarning qizi ği ortib, voqeadan voqeaga yetaklanadi, har bir obrazning mohiyati ochilishida yangi dalillar bilan kitobxon qiziqtirib boriladi. Adibning kuchi uning hayolotida, mantiqiy fikrlashida va provardida sujet yōnalishini hayot haqiqati asosida olib borishida, binobarin, voqealarni tasvirlaganda u mantiqiy uzviylikka rioya qilishi lozim.

Romanning nomi meni juda ōylantirdi. Nega endi tushda kechgan umrlar? Chunki ōzbek xalqining inqilobdan boshlab Mustaqillikkacha bōlgan hayoti dahshatli tush edi, deb ōylayman. Yolg'on aqidalar, be'mani urush, qatag'on siyosati, begunoh insonlarning jazolanishi... Biz urushda bōlmaganmiz, lekin inson ruhiyatining ozorlarini urush orqali haqqoniy kuch bilan tasvirlab berilgan asar orqali angladik.

Asarni shunchaki o'qib bo'lmaydi. ōzbek xonadonlari boshiga tushgan kulfat yuraklarga oĝriq beradi, kulfat solgan odamlar ğazabimizni toshtirib, ichimizdan nola chiqadi. Bir jihatdan qahraminlarning qismatiga achinsak, ikkinchi timondan zulmkorlarning xatti-harakati ğ

azabimizni keltiradi. Asar kōzlarimizga qalqiy olmagan yoshlarga ham, dilimizni tosh qotirgan ġazab shiddatiga ham sababchi bōladi. Uluġ Xemunguey asarlaridagi kabi urush oralab inson yuragiga yōl oldi. Asardan chiqargan xulosam shu bo'ldiki, afg'on urushi insonlar boshiga ko'plab kulfatlarni soldi. Qatag'on siyosati esa undan ham oshib tushdi. Bunga sabab nima edi. Javob bitta mustamlakachilik. Qachonki xalq, davlat mustaqil bo'lsa uni bosqinchilar xohlagancha boshqara olmaydi. O'z manfaatlari yo'lida foydalanmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tushda kechgan umrlar: roman./ Ő. Hoshimov; mas'ul muharrir va sōzboshi muallifi A.Samad.-T.:MERIYUS, 2015.
2. Hoshimov Ő. Tanlangan asarlar. I tom. - Toshkent: Sharq, 2009.
3. Hoshimov Ő. Tushda kechgan umrlar. - Toshkent. 2009.
4. [www.teletype.com](http://www.teletype.com)